

THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE COUNTRY'S ECONOMY AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT

Mamatkulova Gulbahor Odiljon kizi

SamISI Master's student in the field of "Economics"

Annotation: This article analyzes the role of small business and entrepreneurship in the country's economy, the stages of their development and their significance in modern conditions. Entrepreneurship, as a separate type of economic activity, covers the stages from human thinking to the process of acquiring material form. Also, the essence of the economic reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan, in particular, the policy aimed at reducing state participation, protecting private property rights and encouraging small business, is considered.

Keywords: small business, entrepreneurship, economic reforms, private sector, competitiveness, consumer demand, innovation.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'ri, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy sharoitda tutgan ahamiyati tahlil qilingan. Tadbirkorlik iqtisodiy faollikning alohida turi sifatida insonning fikrlash faoliyatidan boshlanib, moddiy shaklga ega bo'lish jarayonigacha bo'lgan bosqichlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish hamda kichik biznesni rag'batlantirishga qaratilgan siyosatning mohiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, xususiy sektor, raqobatbardoshlik, iste'molchi talabi, innovatsiya.

Kirish

Tadbirkorlik iqtisodiy faollikning alohida turi bo'lib, uning boshlang'ich bosqichi, odatda, fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan bog'langan bo'ladi, faqat u keyin moddiy shaklni oladi.

Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishdan iborat. Bugungi kunda koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan global iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llabquvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari qatori kichik tadbirkorlik sohasida vujudga kelgan murakkab vaziyatni yumshatish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2020-yil

3-apreldagi PF5978-sonli, ‘Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo’llab-quvvatlashning qo’shimcha choratadbirlari to’g’risidagi 2020 yil 20-iyuldagi PF-6029-sonli Farmonlarini bunga misol qilish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor uchun iste’molchining manfaatlariga muvofiq harakat qilishdan boshqa iste’molchiga ta’sir qilishning yo’li yo’qdir. Am- mo bu tadbirkor iste’m olchining m anfaatlariga muvofiq harakat qilishi kerakligini bildirmaydi. Tadbirkorning o’zi iste’m olchining talabini shakllantirishi, yangi iste’m ol ehtiyojlarini yaratishi (agar xaridor uchun zarur bo’lgan yangi tovar yaratilsa) m um kin. Shundan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning ikki usulini keltirish mumkin:

— iste’molchi manfaatini aniqlash usuli;

— iste’molchiga yangi tovar yoki xizmatlari ‘majburan qabul qildirish’ usuli.¹

Shunday qilib, tadbirkorning asosiy maqsadi o’z iste’molchilariga ega bo’lish yo’lida tovarga ehtiyojni aniqlashdan iboratdir. Tadbirkor o’z iste’molchilarini shakllantirishda quyidagi asosiy omillarni hisobga olishi kerak:

— tovarning yangiligi va uning xaridor manfaatiga mos kelishi; — tovar yoki xizmatlarning sifati;

— tovar yoki xizmatlarning narxi;


— tovarning universallik darajasi;

— tovarning tashqi ko’rinishi, uning xaridor talabiga mosligi;

— sotuvdan keyingi servis xizmatlaridan foydalanish imkoniyati;

— tovarning qabul qilingan umumiy yoki davlat standartlariga mosligi; — tovarlar va xizmatlar reklamasining jozibaliligi, xaridor diqqatini o’ziga jalb etishi va hokazo.

¹ Kichik biznes va tadbirkorlik: (oliy o’quv yurtlarining barcha ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun o’quv qo’llanma) / M.R. Boltaboyev (va boshq.); O’zR Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Noshir, 2011



1.1-rasm..Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YalMdagi ulushi,foizda²

Ushbu ma'lumotlar O‘zbekiston Respublikasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Yalpi Mahsulot (YalM)dagi ulushini ko'rsatadi. Keltirilgan statistikalar 2010 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ulushning yillar bo'yicha o'zgarishi kichik biznes va tadbirkorlik sektorining mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatganini va uning ahamiyatini ifodalaydi.

Boshidan o'sish va pasayish: 2010 yildan 2015 yilgacha kichik biznes va tadbirkorlikning YalMdagi ulushi sezilarli o'sish ko'rsatdi. 2010 yilda ulush 60,8% ni tashkil etsa, 2015 yilga kelib, u 64,6% ga ko'tarildi. Bu davrda kichik biznesning rivojlanishiga oid ijobiy iqtisodiy siyosatlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlari samarali bo'lganini ko'rsatadi.

2016-2019 yillarda o'zgarishlar: 2016 yilga kelib ulush biroz pasayib, 65,3%ni tashkil etdi, keyin esa 2018 yilga kelib, 62,4% ga tushdi. Bu davrda kichik biznesning YalMdagi ulushi qisqacha kamaygan bo'lishi mumkin, ammo bu bir qator omillar, jumladan, iqtisodiy o'zgarishlar, yirik korxonalarining rivojlanishi, va global bozor sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Pandemiya ta'siri: 2020-2021 yillarda, ayniqsa pandemiya davrida, kichik biznes va tadbirkorlik sektori muhim muammolarni boshdan kechirdi. 2020 yilga kelib ulush 54,8% ga pasaydi, 2021 yilda esa 54,1% gacha yanada kamaydi. Pandemiya va iqtisodiy inqiroz kichik biznesni qiyin ahvolga solganini va ularning iqtisodiyotdagi ulushi qisqarganini ko'rsatadi.

Yangi o'sish tendensiyasi (2022-2023): 2022 va 2023 yillarda ulush yanada pasayib, 51,8% va 51,2%ni tashkil etdi. Bu, ehtimol, O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning ulushi o'rta va yirik korxonalariga qaraganda nisbatan kamayganini va yirik ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalarining o'sishi kichik biznesning ulushini kamaytirganini ko'rsatadi.

² Stat.uzdagi ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Umumiy natija: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining YalMdagi ulushi 2010 yildan 2015 yilgacha sezilarli o'sish ko'rsatgan, lekin 2016 yildan boshlab bu ulushning pasayish tendensiyasi kuzatildi. 2020 va 2021 yillarda pandemiya ta'sirida sektorda qiyinchiliklar yuzaga keldi. 2022 va 2023 yillarda esa ulush yanada kamaygan. Bu o'zgarishlar kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ahamiyatini tushunishga yordam beradi, va davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o'sishining qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi, bandlik muammolarini hal etish, milliy boylikni o'stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo'lmish tadbirkorlik respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish yo'lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bir necha yillar mobaynida maslahatlar berish, moliyaviy yordam ko'rsatish yoki soliqlar to'lashda tadbirkorlar uchun ma'lum bir imtiyozlar berilishida aks etmoqda. Tadbirkorlik muhiti mamlakatning rivojlanish asosini tashkil qiladi va ishbilarmon kishilarning faoliyat mazmunini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tadbirkorlik muhiti turlichadir. Rivojlangan mamlakatlarda bunday muhit o'zining qulayligi hamda iqtisodiy jarayonlarning yuqori darajada unumli tashkil qilinishi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy jarayonlar qanchalik unumli bo'lsa, jamiyat moddiy va ma'naviy jihatdan shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Iqtisodiy jarayonlarning samarasi amalda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning soni va sifati hamda shu faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishilar soni bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik ishiga yangi tadbirkorlarni jalb qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlik muhiti darajalariga bog'liqdir. Oxirgisi tadbirkorlik faoliyatiga davlatning aralashishi darajasiga bog'liq. Davlat shunday shart-sharoitlar yaratib berishi kerakki, unda tadbirkorlarning va tadbirkor bo'lmoqchi bo'lganlarning qiziqishi, xohishi va intilishlari maksimal darajada o'z ifodasini topsin.

Mehnat resurslari tez o'sayotgan va ishlab chiqarish joylashuvidagi o'ziga xoslik sharoitlarida O'zbekistonda kichik korxonalar tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:


- ❖ erkin mehnat resurslarining, yangi xo'jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqarishda bo'shatiladigan shaxslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish, mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi;
- ❖ aholining, birinchi navbatda, yoshlarning, moddiy, ma'naviy va kasb darajasini ko'tarish;
- ❖ aholining sust harakatchanligini hisobga olgan holda sanoat ishlab chiqarishini aholi yashaydigan joylarga yaqinlashtirish hamda aholining xalq iste'moli mollariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;
- ❖ milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek, kichik va o'rta shaharlarni, qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish, umuman, har bir mintaqa uchun g'oyat muhim bo'lgan iqtisodiyot samaradorligini oshirish.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda har bir yangi tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti mamlakat YIMga qariyb 100 ming dollar miqdorida hissa qo'shishi mumkinligi aniqlandi. Hukumat tomonidan qo'yilgan maqsadning bajarilishi ya'ni 2024-yilda 110

mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi **mamlakatning YAIMga 10milliard dollardan ortiq mablag‘ qo‘shilishiga** olib kelishi mumkin.

Avvalgi ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yildan 2022-yilgacha O‘zbekistonda bitta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotga qo‘shishi mumkin bo‘lgan hissasi 111 ming dollaridan 74 ming dollarigacha pasayish tendensiyasi kuzatilgan (**1.2-rasm**). Bunga sabab qilib COVID-19 pandemiya davrini ko‘rsatish mumkin. Ekonometrik tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samaralilik darajasi pandemiyadan avvalgi davr ko‘rsatkichlariga yetib olmoqda.

Bir dona kichik va o'rta biznes subyektlarining YIMga qo'shayotgan hissasi (AQSH dollarda).1.2-rasm³




Osiyoning eng kuchli iqtisodiyotiga ega mamlakatlardan biri bo‘lgan Singapur bitta kichik va o‘rta biznes subyektlarining YIMga qo‘shadigan hissasi eng yuqorilardan biri hisoblanib, 2022-yilda 750 ming dollar miqdorini ko‘rsatgan. Markaziy Osiyoda va tahlil o‘tkazilayotgan mamlakatlar orasida eng ko‘p miqdordagi kichik va o‘rta biznes subyektlariga ega (**1.3-rasm**) Qozog‘istonda bitta kichik va o‘rta biznes subyektlarining iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi tahlildagi boshqa mamlakatlardan past bo‘lib, 2022-yilda 45 ming dollarni tashkil etgan. Qirg‘izistonda bitta kichik va o‘rta biznes subyektlarining iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi 2022-yilda 232 ming dollarni ko‘rsatib, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng katta natijani qayd etmoqda (**1.2-rasm**)

Tahlil o‘tkazilayotgan mamlakatlarda (Malayziyadan tashqari) 2018-yildan 2022-yilgacha kichik va o‘rta biznes subyektlari sonining o‘shish tendensiyasi davom etgan bo‘lib, eng keskin o‘shish

³ Osiyo taraqqiyot banki va o'rta biznes subyektlari monitori(2023)

Qozog'istonda kuzatilgan. Ya'ni bu mamlakatda kichik va o'rta biznes subyektlarining soni 2022-yilda deyarli 2 millionga yetgan va avvalgi yildagi qariyb 1,5 millionlik ko'rsatkichdan 25 foiz o'sish kuzatilgan. Ushbu ajoyib o'sishga QQS to'lovlari chegarasini kamaytirish ya'ni 30 ming karra bazaviy hisoblash miqdoridan 20 ming karraga o'zgartirilishi [sabab](#) qilib ko'rsatilmoqda. O'zbekistonda ham kichik va o'rta biznes subyektlarining soni 2018 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrda sezilarli darajada o'sdi va 524 mingtagacha yetgan (1.3-rasm).⁴

Kichik va o'rta biznes subyektlarining soni(ming donada).1.3-rasm⁵



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o'zgartirish yoki korxonani (shujumlardan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta'riflanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tatbiq etishda o'z ifodasini topadi.

⁴ <https://proreforms.uz> sayti, mualliflar: Rahmatilla Ubayev, Saidaxon G'ulomova

⁵ Osiyo taraqqiyot banki va o'rta biznes subyektlari monitori(2023)